

PSIXOLINGVISTIKA FANINING TARIXIY RIVOJLANISH BOSQICHLARI (1-qism)

Esanov Azizbek Shermamat o'g'li,

1-bosqich tayanch doktorant

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti,

azizbekesanov97@gmail.com

Abstract. Mazkur maqolada psixolingvistika fani rivojlanish tarixining eng qadimgi bosqichidan boshlab XX asrning ikkinchi yarmigacha bo'lgan davrda til, uning tabiati va xususiyatlari haqidagi dastlabki tasavvurlar qisqacha ko'rib chiqiladi. Bunda jumladan zamonaviy psixolingvistika fanining rivojlanish tarixini bir necha tarixiy davrlarga bo'linib, dastlab qadimgi Misr va Yunon faylasuflarining qarashlari, keyinchalik o'rta asrlarda amalga oshirilgan ba'zi tajribalar, undan so'ng XIX asrning kognitiv neyropsixologiyasi va tilshunosligi rivoji masalalari qisqacha ko'rib chiqiladi. Mazkur maqolamiz zamonaviy psixolingvistika fanining paydo bo'lguniga qadar qanday bosqichlardan o'tganligi va qay tarzda rivojlanganligini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlarimizning dastlabki natijasi hisoblanadi.

Kalit so'zlar: psixolingvistika, til va miya, Platon, "G'or allegoriyasi", tafakkur hosilalari (mental reprezentatsiya), tilni o'zlashtirish, tabiiy til, kognitiv neyropsixologiya, F.Gall, frenologiya, Broka, Vernike, Lixthaym, afaziya, Broka-Vernike-Lixthaym modeli.

KIRISH

Ma'lumki, psixolingvistik tadqiqotlarning asosiy maqsadi tilni o'zlashtirish, ishlab chiqarish va tushunish bilan bog'liq bo'lgan psixik jarayonlarni tushuntirishdan iborat. Psixologiya xulq-atvorni nazorat qilishni o'rganganidek, psixolingvistika ham lingvistik xatti-harakatlarni nazorat qilish jarayonlarini o'rganadi. Aslida, til haqidagi qarashlar asrlar davomida olimlarni qiziqtirib kelgan. Shunga qaramay, ko'pgina darsliklarda psixolingvistika 1950-yillarning oxiri va 1960-yillarda paydo bo'lgan deb taxmin qilinadi va bundan oldin uning rivojlanishiga hech qanday e'tibor berilmagan deb hisoblanadi. Ba'zi jihatlardan bu to'g'ri, chunki psixolingvistika psixologiya adabiyotida aniqlanishi mumkin bo'lgan fan sifatida rivojlana boshladi. Lekin psixolingvistikaning oldingi tarixida (XIX asrgacha) falsafiy taxminlar hukmronlik qilgan. Chunki ushbu davr mobaynida ong va til, yoki to'g'ridan to'g'ri aytganda miya va til o'rtasidagi munosabatlarni muntazam va doimiy ravishda so'roq qilish yo'q edi

- savol beradigan tadqiqotchilar jamoasi yo‘q edi. Ammo zamonaviy psixolingvistikani o‘rganishda falsafa, ya’ni abstraksiya emas, balki reaksiya vaqtlarini o‘lchaydigan, ko‘z harakatlarini kuzatuvchi, chaqaloqlarning qichqiriqlarini qayd etuvchi va boshqa eksperimental tadqiqotlar ustunlik qiladi. Oldingi davrda esa bunday tajribalar mavjud emas edi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Psixolingvistikaning fan sifatida e’tirof etilishi. “Psixolingvistika” atamasi 1936-yilda Jako Robert Kantor tomonidan o‘zining “Grammatikaning obyektiv psixologiyasi” kitobida birinchi marta keltirib o‘tilgan va keyinchalik bu atama Indiana universitetidagi jamoadoshlari orasida qo‘llanila boshlangan. Biroq uning shogirdi amerikalik psixolog Nikolay Genri Pronkoning 1946-yilda yozilgan “Til va psixolingvistika: sharh” nomli maqolasi tufayli bu atama ilmiy muomalaga kiritilgan va keng qo‘llanila boshlangan. (Levelt, 2013) “Psixolingvistika” psixologiya va lingvistika kesishgan nuqtadagi metafan, ya’ni psixologiya va lingvistika fanlarining sintezi asosida yuzaga kelgan fan tarmog‘i hisoblanadi. 1953-yilda AQShning Blumington shahridagi Indiana universiteti huzuridagi Lingvistika va psixologiya qo‘mitasi tomonidan tashkil etilgan universitetlararo seminarida psixolingvistika mustaqil fan sifatida e’lon qilindi. Mazkur seminar mashhur amerikalik psixologlar Charlz Osgud, Djon Kerroll hamda tilshunos, etnograf va adabiyotshunos olim Tomas Sibeoklarning tashabbusi bilan tashkil qilingan edi. 1954-yilda nashr qilingan “Psixolingvistika. Nazariya va tadqiqot muammolari ocherki” kitobida seminar jarayonida qabul qilingan psixolingvistikaning asosiy nazariy masalalari, eksperimental tadqiqotlarning asosiy yo‘nalishlari belgilandi va u qator fanlararo psixolingvistik tadqiqotlarni amalga oshirishda muhim rol o‘ynadi. (Osgood, 1954) Lekin psixolingvistika fanining mustaqil fan sifatida yuzaga kelishini aynan shu voqea bilan bog‘lash maqsadga muvofiq bo‘lmaydi, negaki uning rivojlanish tarixi uzoq o‘tmishga borib taqaladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Eng qadimgi empirik tadqiqotlar. Til va miya faoliyatini eng birinchi tadqiq etgan insonlar qadimgi misrliklar hisoblanadi – sababi, aynan ular birinchi bo‘lib hayotning barcha sohasi to‘g‘risida asarlar yozishgan. Miloddan avvalgi 1700-yillarda yozilgan Edvin Smit jarrohlik papirusida bosh jarohati ta’sirining (va tananing pastki qismidagi jarohatlarning ham) katalogi mavjud. (Breasted, 1930) Mazkur qo‘lyozmada afaziyaning birinchi qayd etilgan hodisasi - miya travmasidan keyin nutqning buzilishi haqida aytib o‘tilgan. Biroq, misrliklar tananing boshqa a’zolaridan farqli o‘laroq, mumiyalash paytida tashlab yuborilgan miyaga unchalik ahamiyat bermaganlar, va shu sababli ular bu ishni miyani burundan qirib tashlash orqali amalga oshirishgan). (Sofia,

2023) Buning o‘rniga ular yurak ruhning o‘rni va xotira ombori ekanligiga ishonishgan.

Platonning “G‘or allegoriyasi”. O‘z navbatida Platon, eng birinchilardan bo‘lib, til haqida batafsil fikr yuritgan faylasuf hisoblanadi. Albatta, uning asarlari til falsafasi va “So‘z nimani anglatadi?” degan savolga juda kuchli ta‘sir ko‘rsatgan. Jumladan, Platon so‘zlarning ma‘nosini o‘zining “Davlat” asarida “Zindon allegoriyasi”da o‘ziga xos tarzda talqin etdi. (Ferrari, 2000) Unga ko‘ra bir guruh kishilar butun umrlari davomida g‘orda zanjirband holatda yashab kelishar edi. Ularning yuzi g‘or devorlariga qaratib qo‘yilgan, shu tufayli ular faqatgina g‘or devorlaridagi soylarnigina ko‘ra olishar edi. Ushbu allegoriyada bir guruh mahbuslar butun hayoti davomida g‘orda zanjirband qilingan bo‘lib, ular faqat olov alangasi bilan devorga tashlangan narsalarning soylarini ko‘rishadi. Butun umr faqat soylarni ko‘rganligi sababli, ularning tilida asosan o‘sha soylar o‘z aksini

(Rasm 1)

topadi. Platonning ta‘kidlashicha, mahbuslar so‘zlardan nafaqat o‘sha zindondagi soylarga, balki tashqi dunyodagi o‘zlari ham anglamagan narsalarga ishora qilish uchun foydalanishgan, Shuning uchun, Platon va boshqa ko‘plab zamonaviy



faylasuflar so‘zning haqiqiy ma‘nosini, o‘sha so‘zni ishlatib, unga ma‘no bergan shaxsga tegishli bo‘lmagan, uning bilim doirasidan tashqaridagi hodisa, deb hisoblaydilar. Qiziqarli tomoni shundaki, Platon akademiyasi miyani aql-zakovat maskani deb hisoblagan bo‘lishiga qaramasdan, mazkur akademiyaning talabasi, buyuk yunon faylasufi Arastu ham mazkur yurak to‘g‘risidagi e‘tiqodni keng miqyosda ilgari surgan. (Modrak, 2001)

Platon bu allegoriya orqali atrofimizda sodir bo‘layotgan voqeliklarga nisbatan bizdagi bilimlarni tasvirlash uchun foydalanadi. Ya‘ni bu uydurma orqali biz ham xuddi g‘or kishilari singari soylar va illyuziyalar dunyosida yashayotganimiz yo‘qmi degan nozik masalani o‘rtaga tashlaydi. U “zanjirlangan kimsalar g‘or devorlaridagi soylarning haqiqat ekaniga so‘zsiz ishonuvchi va bundan o‘zga har qanday haqiqatni qabul qilishga qodir bo‘lmagan qaysidir ma‘noda ojiz, qaysidir ma‘noda johil kishilar”

deb o'z fikrlarini xulosalaydi. Faylasuf, haqiqiy bilim va tushunchaga ega bo'lgan shaxs xuddiki zanjirlardan ozod bo'lib, soyalarni emas, balki soya solayotgan haqiqatlarni ko'ra olishga qodir ekaniga urg'u beradi. Zanjirlardan ozod bo'lib, g'ordan qutulib chiqish uchun kishi avval o'zi zanjirband ekanini anglashi, ana undan so'ng zanjirlardan qutulishi va qaddini tik tutishga urinishi mumkin. Ya'ni bu kishi kamol topib borar ekan, u avval bilimlar bilan fazilatlanishi va keyinchalik bu bilimlarni ezgu manfaatlar yo'lida qo'llay olishni anglatadi. Ushbu allegoriya orqali Platon voqelik tabiati va tushunchalarimizning chegaralari haqida kishini mushohadaga chorlovchi murakkab savollari tafakkur qilishga undaydi. Bundan bir narsani anglash mumkinki, biz haqiqat deb qabul qiladigan tushunchalar ba'zida shunchaki uning soyasi yoki haqiqiy voqelikka nisbatan taqlid bo'lib chiqish ehtimoli mavjud.

Garchi Platon hikoyadagi mahbuslar hissiy sezgilari (soyaning tasvirini ko'rish) orqali tashqi olamni tasavvur etishini to'g'ri aytgan bo'lsa-da, mahbuslarning tildan foydalanishi bilan bog'liq bo'lgan aqliy jarayonlar faqat o'sha sezgi a'zolari ifodalangan tasvirning tafakkur hosilalariga bog'liq bo'lib qolaveradi. Ya'ni, agar inson hayoti faqat g'or ichida hayot kechirish bilan chegaralangan bo'lsa, tashqi olamdagi narsalarning ma'lum xususiyatlari (rang, tuzilish va zichlik kabi) zindondagi soyalar orqali aks ettirilmaganligi tufayli aynan shu xususiyatlarga tegishli bo'lgan sezuvchanlik va aqliy jarayonlar hech qachon rivojlanmay qolishi mumkin. Ammo soyalar, aytaylik, tennis to'pi va apelsin o'rtasidagi farqni aniqlashga imkon bermasada, mazkur ikki obyekt bilan bog'liq tajribamiz yoki ularning nomlarini bilishimiz ham ularni farqlashga imkon beradi, lekin bunda bizning tafakkurimiz faqatgina sezgi a'zolarimizga asoslanmaydi, qo'shimcha aqliy dalillarga ham tayana boshlaymiz. Mazkur haqiqiy olam va bizning mana shu olam haqidagi tasavvurlarimiz o'rtasidagi farqlar, shuningdek, biror so'z va ushbu so'z bilan bog'liq vaziyat o'rtasidagi bu tafovutlar boshqa faylasuflarni, ayniqsa Vitgenshteynni so'zning ma'nosini ta'riflashga undadi. "Falsafiy tadqiqotlar" asarida yozishicha, so'zning ma'nosi - bu uning tilda qo'llanilishini, ya'ni bu so'zni qo'llash o'rinli bo'lgan holatlarni bilish demakdir. (Wittgenstein, 1958) Aytish mumkinki, bu kabi vaziyatlarni bilish esa faqatgina tajriba orqali shakllanadi.

Shundan so'ng asrlar davomida inson nutqining tabiatini aniqlashga, uning til xususiyatlarini tushunishga qaratilgan bir qancha tadqiqotlar o'tkazilgan, biroq ularning barchasi yetarli ilmiy dalillar bo'lmaganligi uchun muvaffaqiyatsizlikka uchragan. To'g'ri, zamonaviy davrda bo'lganida inson bardosh bera olmaydigan alohida tajribalar o'tkazilgan. Misol uchun, eng ko'p takrorlangan tadqiqotlardan biri tarixchilarga ko'ra eramizdan avvalgi VII asr va milodiy XVI asrlar orasida kamida uchta va ehtimol to'rtta mustaqil holatda o'tkazilgan tadqiqotlardan iborat bo'lgan.


Bunda bolalar alohida yolg'izlikda tarbiyalangan va faqatgina soqov yoki gapirmaslik buyurilgan tarbiyachilar ular bilan birga bo'lgan. Ushbu eksperimentlarning maqsadi bolalar qaysi tilda gaplashishini aniqlash bo'lib, yakunda natijalar har xil bo'lib chiqqan. Bunday tajribalar sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin: tarixchi Gerodot manbasiga ko'ra, Misr fir'avni Psamtik (mill.avv. VII asr) tomonidan o'tkazilgan tadqiqotda chaqaloqlarning frigiylar tilida gaplashishini aniqlagan. (Herodotus, 1890) Rim imperatori va Germaniya qiroli Fridrix II (milodiy 1194-1250) ham xuddi shunday tadqiqot o'tkazgan, ammo barcha chaqaloqlar vafot etgan. Shunga o'xshash, Toj Mahalni qurgan Shoh Jahonning bobosi Akbarshoh (1542–1605) ham xuddi shunday insonning “tabiiy tili”ni aniqlashda muvaffaqiyatsizlikka uchragan. (Campbell & Grieve, 1999) Shunga qaramay, ba'zi manbalarda yuqoridagi kabi tajribalar davomida chaqaloqlar tarbiya beruvchilarning ishora tillarini qisman o'zlashtirgan bo'lishi mumkinligi haqida takliflar ilgari surilgan.

XIX asr: kognitiv neyropsixologiyaning paydo bo'lishi

Til va miya o'rtasidagi munosabatlarning birinchi tizimli tadqiqotlari XIX asrda o'tkazilgan. Psixolingvistika tarixida aynan shu davrni ilmiy tadqiqotlarning rivojlanishini kuzatish mumkin bo'lgan eng dastlabki bosqich sifatida belgilashimiz mumkin. Negaki, garchi o'sha davrda ularning hech biri “psixolingvist” sifatida ta'riflanmagan bo'lsalar-da, asosiy tadqiqotlarni amalga oshirgan F.Gall, J.Bulyar, E.Obertin, P.Broka, K.Vernike va L.Lixtxaym kabi yetakchi olimlar o'zlarining ishlari orqali miya va til o'rtasidagi munosabatlar haqida ma'lumot berishgan hamda psixolingvistika sohasining rivojiga o'zlarining qarashlari, ba'zan tubdan farqli nuqtai nazarlari orqali sezilarli ta'sir ko'rsatishgan.

Yuqoridagi olimlar orasida Frans Gall frenologiya (miya sohalarining xaritasini yaratish ustida ish olib boradigan fan sohasi) bo'yicha amalga oshirgan ishlari uchun ko'proq tanilgan bo'lib, u til mexanizmlari miyaning oldingi qismlarida joylashganiga ishongan. (Finger & Eling, 2019) Keyinchalik uning shogirdi Jan Bulyar ustozining nazariyasini tasdiqlovchi klinik dalillarni to'plagan va o'z navbatida, Bulyarning shogirdi Ernest Obertin ham xuddi shu ishni davom ettirgan. (Stookey, 1963) 1861-yil aprel oyida bo'lib o'tgan yig'ilishda Obertin o'z qarashlarini aniq bayon etadi: agar miyaning frontal sohasiga bog'liq bo'lmagan boshqa biror nutq yo'qotilishi holati aniqlansa, u o'zi va ustozlari tomonidan ilgari surilgan til mexanizmlarining old miya sohasida joylashuvi haqidagi qarashlaridan voz kechishini bildiradi. O'sha yig'ilishda tomoshabinlar orasida Pol Broka ham qatnashayotgan edi va u Obertinning empirik tajribalari xulosalaridan hayratga tushadi, lekin *kraniologiya fakti* (ya'ni ustoz qarashlarining o'z shogirdlariga o'tishini ifodalovchi atama) nutqning yo'qotilishi va miya joylashuvi o'rtasidagi bog'liqlikni tushuntirish uchun yetarli dalil


bo‘la olmasligini, buni isbotlash faqatgina miyani anatomik tekshirish orqali amalga oshirilishi mumkinligini to‘liq anglab yetadi. (LaPointe, 2013) Shu voqeadan biroz vaqt o‘tib, unga nutq yo‘qolishi bilan og‘rigan bemorni taqdim etishadi. Muolajalarga qaramay, bemor bir necha kundan so‘ng vafot etadi. Shundan so‘ng, olim tomonidan ushbu bemor miyasining hozirda Broka sohasi deb ataladigan qismidagi jarohatning o‘limdan keyingi tahlili o‘tkaziladi. Mazkur tajribadan biroz vaqt oldinroq boshqa bir olim Mark Daks tomonidan miyaning o‘ng yarimshari falajlanishi va nutqning yo‘qotilishi o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash maqsadida kuzatuvlar o‘tkazilgan edi. (Manning & Thomas-Antérion, 2011) Mazkur olimlarning tadqiqot natijalari bir-biridan bexabar holda bir vaqtda e‘lon qilinadi va ushbu tahlillar natijalari yuqorida aytib o‘tilgan tilning miyada joylashuvi to‘g‘risidagi farazlarni anatomik jihatdan asoslab beradi. Taxminan 10 yil o‘tgach 1874-yilda Karl Vernike o‘zining “sezgi afaziyasi”, ya’ni tilni tushunishdagi nuqsonlar haqidagi asarini nashr etadi. (Wernicke, 1874/1969) Bu ish Vernikening shogirdi Lyudvig Lixtxaym tomonidan sezilarli darajada rivojlantiriladi, va u 1885-yilda miyadagi uchta o‘zaro bog‘langan markaz afaziyaga qanday ta’sir qilishining sxemasini taklif etadi: Broka sohasi (“eshitish tasvirlari markazi”), Vernike sohasi (“motor tasvirlar markazi”) va tarqoq joylashgan “konsepsiya markazi”. (Lichtheim, 1885) Ushbu sohalarning har birida yoki ular orasidagi bog‘lanishlarda turli xil afaziyalar paydo bo‘ladi. Eng qizig‘i, mazkur sxemasi unga hali tasvirlanmagan buzilishlarni bashorat qilish imkonini berdi.



(Rasm 2)

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, biz hozirgacha muhokama qilgan XIX kognitiv neyropsixologiyasigacha bo‘lgan davrida zamonaviy psixolingvistikaning shakllanishi va yuzaga kelishiga, shuningdek biz qay tarzda til xatti-harakatlarini o‘rganishimizga



(Rasm 3)

muhim ta'sir ko'rsatgan barcha tendentsiyalarni bir maqolada hujjatlashtirishning iloji yo'q. Shu sababli, ushbu til hodisalarini va xatti-harakatlarini chuqur o'rganishimizda biz hali ham XX asr bixevioristik yondashuvlarini, shuningdek, o'tgan asrning 50-yillarida yuzaga zamonaviy tilshunoslik yo'nalishlari, xususan mentalistika, konneksionizm, statistik tahlil, kompyuter lingvistikasi, kognitivistika, va til neyrovrologiyasining zamonaviy sohalarini, ularning rivojlanish tendensiyasini ko'rib chiqishimiz kerak bo'ladi. Bular haqida keying maqolalarimizda so'z boradi. Shunga qaramay, bir narsani ishonch bilan ayta olamizki, tilga hamda kognitiv bilishga doir tadqiqotlar o'rtasidagi chegaralar tobora kichrayib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

- Breasted, J. H. (1930). *The Edwin Smith surgical papyrus*. Illinois: The University of Chicago Press.
- Campbell, R. N., & Grieve, R. (02 1999 г.). Ancient and medieval experiments on child language: A comment on Bonvillian, Garber and Dell (1997). *First Language*(19 (55)), сtp. 91-98. doi:DOI:10.1177/014272379901905504
- Ferrari, G. R. (Ред.). (2000). *Plato. The Republic*. (T. Griffith., Перев.) Cambridge: Cambridge University Press.
- Finger, S., & Eling, P. (2019). *Franz Joseph Gall, Naturalist of the Mind, Visionary of the Brain*. Oxford: Oxford University Press.
- Herodotus. (1890). *History*. New York: Pearson.
- LaPointe, L. L. (2013). *Paul Broca and the Origins of Language in the Brain*. San Diego: Plural Publishing.
- Levelt, W. J. (2013). *Psycholinguistics. The Pre-Chomskyan Era*. . Oxford, United Kingdom: Oxford University Press.
- Lichtheim, L. (1885). On aphasia. *Brain*(170), сtp. 433-484.
- Manning, L., & Thomas-Antérion, C. (2011). Marc Dax and the discovery of the lateralisation of language in the left cerebral hemisphere. *Revue neurologique*(167(12)), 868–872. doi:10.1016/j.neurol.2010.10.017
- Modrak, D. K. (2001). *Aristotle's Theory of Language and Meaning*. Cambridge: Cambridge University Press.
- Osgood, C. E. (1954). Psycholinguistics. A survey of theory and research problems. *Psycholinguistics. A survey of theory and research problems* (сtp. 212). Baltimore: Waverly Press.
- Sofia, A. (2023). *The Human Brain in Ancient Egypt: a medical and historical re-evaluation of Its function and importance*. Oxford: Archaeopress.

Stookey, B. (1963). Jean-Baptiste Bouillaud and Ernest AUBURTIN. Early studies on cerebral localization and the speech center. *Journal of the American Medical Association (JAMA)*, 1024-9.

Wernicke, C. (1874/1969). The symptom complex of aphasia: A psychological study on an Anatomical basis. B R. Cohen, & M. Wartofsky (Ред.), *Proceedings of the Boston Colloquium for the Philosophy of Science 1966/1968*. . 4. Springer, Dordrecht.: Boston Studies in the Philosophy of Science . doi:10.1007/978-94-010-3378-7_2

Wittgenstein, L. (1958). *Philosophical investigations*. (G. E. Anscombe, Перев.) New York: Macmillan.

Rasm 1. <https://studiahumanitatispaideia.blog/tag/platonismoaccademia-filosofia/>

Rasm 2. <https://cdn.britannica.com/51/4351-050-83D6C4C9/surface-hemisphere-brain.jpg>

Rasm 3. <https://image.slidesharecdn.com/brainandaphasia-091204140642-phapp01/95/brain-and-aphasia-20-728.jpg?cb=1346351598>